

Date: 5th June-2025

TARIX FANINI LOYIHA METODI ASOSIDA O'QITISHNING SAMARADORLIGI

Tuzuvchi: **Shomansurova Gulsanam Muxametjan qizi**

Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumani 142 - sonli AFCHO'SMUMning tarix fani
o'qituvchisi

Taqrizchi : **Ismailova Marxabo Xamitovna**

Toshkent Amaliy Fanlar universiteti, "Pedagogika " kafedrasining katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu metodik tavsiya loyiha metodi asosida o'qitishning asosiy maqsadi va samaradorligi, mazkur metod asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilarning o'zini va o'zidagi imkoniyatlarini to'g'ri anglash, shakllantirish, tadqiqodchilik ko'nikmasini rivojlantirish asnosida o'qitish amaliyotida loyiha metodini qo'llash hamda o'quv loyihasi haqida bayon etilgan. Tarix fani ta'lim dasturining asosiy fanlaridan biri bo'lib, u o'quvchilarning o'tmishdagi voqealar bilan tanishishi, tahliliy ko'nikma va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish imkonini beradi. Tarix shuningdek, o'tmish va hozirgi kun jamiyatdagi munosabatlarni tushunishga yordam beradi. Tarix fanini to'g'ri o'qitishning muhim omili o'quvchilarni dars jarayoniga faol jalb etish, fanga qiziqishini oshirishga xizmat qiluvchi

Kalit so'zlar: loyiha, loyiha metodi, ta'lim-tarbiya, muammoli vaziyat, tahlil qilish, muammolarni anglash, loyiha topshirig'i.

Kirish

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Bir haqiqatni hech qachon unutmaylik: biz buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan xalqmiz. Biz hech qachon mehnatdan qochmaydigan, qiyinchilikdan qo'rqmaydigan, adolatni qadrlaydigan, azmu shijoatli buyuk xalqmiz.

Barchamiz bir tan-u bir jon bo'lib, yakdil va ahil bo'lib harakat qilsak, halol-pok bo'lib, yaxshi niyat bilan mehnat qilsak, har qanday marralarni egallashga, boshqacha aytganda, tariximizning yangi sahifasini yaratishga qodir xalqmiz".

Bugungi kunda o'qitish metodi deganda, asosan, ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning ma'lum maqsadga erishishiga qaratilgan birgalikdagi faoliyat usullari tushuniladi.

Boshqacha qilib aytganda, o'qitish metodlari har ikkala faoliyatning ya'ni o'qituvchi tomonidan o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish hamda o'quvchilar tomonidan o'sha nazarda tutilgan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish faoliyatida qo'llaniladigan usullarni o'z ichiga oladi.

O'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlarida ta'lim mazmunini takomillashtirish, uning tarbiyaviy yo'nalishini kuchaytirish bilan birga, o'qitish metodlarini ham aktivlashtirish asosiy vazifa qilib qo'yildi. Endilikda, ta'lim mazmuni insoniyat to'plagan tayyor bilimlar, ko'nikma va malakalarni puxta egallash



Date: 5th June-2025

bilan birga, o'quvchilarning mustaqil fikr yuritish, ijodiy ishlash qobiliyatlarining o'sishini ta'minlay oladigan ijodiy faoliyatni ham o'zida birlashtirmog'i lozim. Ta'limning rivojlanish prinsiplariga ko'ra, o'quvchilarni mustaqil fikrlash va ijodiy ishlay bilishga o'rgatish va ularda zarur ko'nikma, malakalarni yuzaga keltirishda ta'lim mazmuni bilan birga o'qitish metodlari ham muhim ro'l o'ynaydi.

O'qitish metodlari murakkab muammo bo'lib, o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida oldiga qo'yilgan mas'uliyatli vazifalarning hal etilishi ko'p jihatdan uning to'g'ri hal qilinishiga bog'liqdir.

Biroq hozircha o'qitish metodikasining bu muhim muammosi, xususan, tarix o'qitish metodlari sistemasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Metodik adabiyotda metodistlar tomonidan «Metod», «Metodik usullar» tushunchasi turlicha talqin etiladi va klassifikatsiya qilinadi.

O'qitish metodikasida tarix ta'limi metodlari tizimining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi va bu sohada yagona fikr bo'lmaganligi o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitish amaliyotida jiddiy kamchiliklarga olib keladi.

Asosiy qism

Loyiha metodi - orqali o'quvchida quyidagi ko'nikmalarni rivojlantirish maqsad qilib qo'yiladi; Tadqiqotchilik ko'nikmasini rivojlantirish; muammoli vaziyatni tahlil qilish; muammolarni anglash, manba va adabiyotlardan zaruriy ma'lumotni ajratib olish va ulardan foydalanish; amaliy vaziyatlarni kuzatishni tashkil qilish, ularning natijalarini belgilash va tahlil qilish; farazlar qurish, ularni tekshirishni amalga oshirish, umumlashtirish, xulosalar chiqarish.

Ko'rsatilgan maqsadlar ta'lim kengligini alohida tashkil qilib, shaxsning sifatlariga ta'sir qiladi. O'quvchida o'zgarish uchun shaxsiy o'sish jarayoni boradi. «Men» so'zi konsepsiyasini amalga

oshirish uchun qobiliyatni shakllantiradi, dunyoni bilish va tadqiq qilish, bilishning tafakkur vositalarini o'zlashtirish amalga oshiriladi.

O'qitish amaliyotida loyiha metodi qo'llanilganda o'quvchida turli qobiliyatlar rivojlanadi, an'anaviy o'qitishda esa (dars o'tishda) "bilimlar" beriladi. An'anaviy ta'limda o'quvchiga bilim berishda o'qitishning tasviriy tushuntirish metodi ustuvor bo'ladi. O'quv jarayoni bu metod bilan to'la nazorat qilinadi, o'quvchilarning ustidan nazorat, mavzuni reproduktiv shakldagi so'rovi amalga oshiriladi. Bu yondashuvning asosiy maqsadi bilimlar, ko'nikma, malakalarni shakllantirish, faoliyatning yetakchi ko'rinishini qayta tasvirlash bo'ladi.

Loyiha metodi - shaxsning rivojlanishini ko'rsatgichlaridan biri o'quvchilarning mushohada qilish ko'nikmalari (sintez, qiyoslash, umumlashtirish, turkumlash, induksiya, deduksiya, mavhumlashtirish va boshqa) larni o'zlashtirishlari bo'ladi.

Eng asosiysi esa o'quvchida o'z shaxsining o'sishiga ehtiyoj qiziqish paydo bo'lishi, o'zini o'zgartirish, hissiy-obrazli sohani rivojlanishi, hissiy qadriyat munosabatlari malakasini olish bo'ladi.

Loyiha asosida ana shu tarzda o'qitish sinf-dars tizimiga muqobil turadigan samarali metod bo'ladi. Lekin an'anaviy me'yorni ham to'la siqib chiqarishi mumkin



Date: 5th June-2025

emas. Chunki jahon ta'lim tizimida yuz yil davomida pedagogik usullar, yondashuvlar, texnologiyalarning oltin zaxirasi to'plandi.

Mutaxassislarining fikricha, loyiha metodi ta'limning boshqa ko'rinishlariga qo'shimcha sifatida foydalanilib, shaxsning o'sishini jadallashuvi sifatida chiqadi.

O'quv loyihasi yoki tadqiqot o'qituvchi nuqtayi nazaridan qaraganda bu rivojlanish, o'qitish va tarbiyaning integrativ didaktik vositasi. U o'quvchida loyihalash va tadqiqotning o'ziga xos o'quv ko'nikmalarini yuzaga kelishi va rivojlanishiga imkon beradi.

O'quv loyihasi yoki tadqiqot o'quvchilarga aynan quyidagilarni o'rgatadi:

- muammolashtirish (muammolar kengligini ko'zdan kechirish va muammolar ostidagi muammolarni ajratish, bu muammolardan kelib chiqadigan yetakchi muammo va topshiriqlarni qo'yish;
- o'quvchining mazmunli faoliyatini shakllantirish va rejalashtirish;
- o'z-o'zining faoliyatini tahlil qilish va refleksiya (loyihaning muammolarini yechishning natijasi va muvaffaqiyatli bo'lishi);
- o'z faoliyati natijalarini va ishning borishini ko'rsatish;

Biz rivojlangan davrda yashayapmiz: atrofimizdagi olam juda tez sur'atlarda, tanib bo'lmas darajada o'zgaryapti. Shuning uchun o'sib kelayotgan avlod bilan ishlaydigan o'qituvchi quyidagilarga tayyor bo'lishi kerak:

O'zgarish. Bu eng qiyini, biroq to'laqonli shaxs sifatida mavjud bo'lish uchun zarur bo'lgan shart. Shuning uchun o'zgarishdan va yangiliklarga ochilishdan qo'rmasligimiz bu bizning ustuvor vazifamizdir.

O'z xatolarini tan olish. Hech narsa qilmagan kishigina xato qilmaydi.

O'qituvchi esa bundaylar toifasiga kirmasligi aniq. Shunday ekan, kerakli vaqtda o'z xatolarimizni tan olishimiz bizga ziyon keltirmaydi albatta.

Rivojlanish. Agar jahon sur'ati bir necha avlodlar davomida o'zgarmagan bo'lsa, hozirda u shu qadar tez sur'atlarda rivojlanyaptiki, buni so'z bilan ifodalash qiyin. Shunchaki unga yetib olish uchun "oyoqni qo'lga olib yugurish kerak" - deya olamiz. Eng asosiysi, o'qituvchi zamonaviy o'quvchilar nima bilan yashayotganini ham tushunishi kerak.

Loyiha Metodi qo'llanilganda o'quvchilarda mustaqil ishlash ko'nikmasi va malakasi rivojlanadi. Ta'limning sifat va samaradorligini oshirish, o'quvchini mustaqil va mukammal bilim olishi uchun imkoniyat yaratish, uning dunyoqarashi va tasavvurini kengaytirish, fikrlash qobiliyatini o'stirish o'qituvchining intellektual salohiyatiga, dars jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalardan o'rinli va unumli foydalanishiga bog'liq.

Darslarda loyiha metodidan foydalanishning afzalliklari:

1 Pedagogik muammolarni bartaraf etadi nazariy bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradi.

2 Psixologik muammolarni bartaraf etadi.

3 Ijodiy fikrlash ijodkorlik bilan bog'liq ko'nikmalarni shakllantiradi.



Date: 5th June-2025

- 4 Jamoa bo'lib ishlashdagi kamchiliklarni yo'qotishda yordam beradi.
- 5 Vaqtdan unumli foydalanish va undan yutishga ko'maklashadi.
- 6 O'quvchilarda XXI asr kompetensiyalarini shakllantirishga ularda ko'nikma hosil qilishga ko'maklashadi.
- 7 Kayfiyatni ko'taradi.
- 8 Jismoniy kuch-quvvatni oshiradi.
- 9 Notiqlikni o'stiradi.
- 10 O'quvchilarni kashfiyotlar qilishga undaydi.

LOYIHA METODI ORQALI 4 KO'NIKMA RIVOJLANADI.



TARIX FANINI LOYIHA METODI ASOSIDA O'QITISHNING SAMARADORLIGI

Dars jarayoni qiziqarli samarali o'tilishi uchun loyihalardan faol foydalanish zarur. Qanday bajarilishi to'liq tushuntirilgan.

Har bir o'qituvchi o'z o'quvchilarining o'rganish jarayonini yaxshilashga, o'qishga motivatsiya uyg'otishga harakat qiladi. Bu yo'lda turli usullarni qo'llab ko'radi. Ana shunday samara beruvchi usullardan biri (balkim, eng yaxshisi) loyiha ishlari hisoblanadi. Loyiha ishlari o'quvchida tanqidiy va tahliliy fikrlash, muammolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Date: 5th June-2025

Ularni ijodkorlik, yangi g'oyalarni sinab ko'rish orqali nazariy bilimni amalda qo'llashga chorlaydi. Hozirgina o'rganilgan nazariy bilimni kundalik hayotda qo'llash imkoni borligi uchun loyiha ishi o'quvchilarni ta'lim jarayoniga chuqurroq jalb etish imkonini beradi va ularda o'rganishga motivatsiya hosil qiladi. Maqolamizda siz bilan birgalikda loyiha ishi tayyorladik.

1. Loyiha ishi uchun mavzu tanlash.

Loyiha ishi uchun tanlangan mavzu: "Agar men Turkiston ma'rifatparvarlari o'rnida bo'lsam" mavzusi asosida shakllantirilgan jamoa bilan kelishgan holda maqsadni belgilang va reja tuzing. Izoh: Loyiha ishi mavzusini o'quvchilar o'zlari ham tanlashlari mumkin.

Eslatma: Jamoalarni shakllantirish:

- O'qituvchi tomonidan shakllantirish;
- qur'a tashlash orqali shakllantirish;
- O'quv dasturidagi bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qilishi;
- dolzarb bo'lishi;
- kerakli resurslarni topish imkoni bo'lishi;
- imkon qadar hamkorlikda (guruh bo'lib) ishlashni talab qiladigan bo'lishi lozim.

2. Jarayonni boshlash.

Bu bosqich o'quvchilar loyiha ishiga kirishgungacha bo'lgan jarayonlarni qamrab oladi.

1. Maqsadni aniqlash. O'qituvchi loyihadan nima kutayotganini aniqlab olishi lozim. Odatda o'quvchilardagi biror ko'nikmani rivojlantirish nazarda tutiladi.

2. Loyiha rejasini ishlab chiqish. O'qituvchi loyiha bosqichlarini avvaldan rejalashtirib olishi kerak. Avval qaysi ish bajariladi, keyin qay biri ekanini o'quvchilarga ham tushuntirish kerak bo'ladi.

3. Baholash mezonlarini ishlab chiqish. Loyiha ishi qanday usulda va mezonlar asosida baholanishi o'quvchilarga oldindan ma'lum qilinadi.

4. O'quvchilarni loyiha ishi bilan tanishtirish. Bunda o'quvchilar guruhlariga biriktiriladi. Ularga loyiha maqsadi va natijasi, baholash mezonlari tushuntiriladi.

3. Loyiha ishini qabul qilib olish.

Bu jarayon tanlangan loyihaga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Loyiha ishini o'quvchilar mahsulot, taqdimot, hisobot yoki sahna ko'rinishi sifatida topshirishi mumkin.

Bu bosqichda baholash ishlari ham amalga oshiriladi. Shu bilan birga, har bir loyihaga alohida mulohaza bildirish lozim. Samarali mulohaza o'quvchilarga yutuq va kamchiliklarni anglash uchun yordam beradi.

Endi siz bilan bir loyiha ustida ishlaymiz. Har bir bosqichni amaliy ko'rib chiqamiz. Ko'pchilikka tushunarli bo'lishi uchun biroz osonroq loyiha va aksar odamlar tushuna oladigan fan tarix fanini tanladik.

Loyiha mavzusini tanlash kerak bo'ladi.

O'quvchilarning amalga oshira olish imkoniyati va resurslar. Bizning loyihada o'quvchilar videomaterialni ko'radi va xulosalari asosida taqdimot tayyorlaydi. Agar sinfimizdagi o'quvchilarning hech birida taqdimot tayyorlash ko'nikmasi, kompyuter,



Date: 5th June-2025

taqdimot ko'rsatish uchun xonada sharoit bo'lmaganda bu mavzuni tanlay olmas edik. Chunki o'quvchilarning imkoniyati va resursi yetarli bo'lmas edi. Resurslar haqida so'z ketganda mavzuga oid sifatli kontent bor-yo'qligi ham hisobga olinishi zarur.

Maqsadni aniqlash. Aslida maqsad mavzudan oldin paydo bo'ladi. Ammo u hali pishmagan, aniq belgilanmagan bo'ladi. Shuning uchun maqsadni to'liq shakllantirish mavzu tanlashdan keyin amalga oshirilmoqda. Maqsadlarimizni aniq yozib chiqamiz. Bizning maqsadimiz o'quvchilarda:

- tahlil;
- ma'lumotlarni tushunish;
- ma'lumotlarni qayta ishlash;
- taqdimot tayyorlash;
- yozma nutq savodxonligi;
- og'zaki nutq savodxonligi;
- baholash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Reja tuzish. Loyihani bosqichlarga bo'lib, har biri uchun vaqt belgilashni ham unutmaslik lozim.

So'nggi bosqich.

Loyiha ishlarini baholash bosqichi. Baholash varaqasini oldindan berganingiz uchun bu bosqichda unchalik ham qiynalmaysiz. Asosiysi, qo'yilgan bahoni tushuntirib berish.

O'ylaymizki, loyiha ishini tayyorlash jarayoni siz uchun foydali bo'ldi.



5 - sinf o'quvchilari bilan "Tarixdan Hikoyalar" fanidan loyiha ishi jarayoni.

Men darslarimda loyiha ishi metodidan foydalangan holda olib boraman. Stereotipimni buzdim!

Darslarni odatiy doirada o'tkazmaslikka qaror qildim: ma'ruza, so'rov va hokazo.

Darslarimni loyiha metodi asosida o'tkazishga harakat qildim. O'quvchilarning darsga qiziqishi yo'qligi ko'pincha ular darsning barcha bosqichlarini oldindan bilishlari bilan bog'liq.

Date: 5th June-2025

Shunday ekan, an'anaviylikka amal qilmadim. O'quvchilarni yangi mavzuni tushunishga jalb qilidim. O'quvchilarning o'zlari izlab ma'lumot topishlari axborotlarni yetkazishlar tayyor tushuntirish tinglashdan ko'ra ko'proq natija beradi.

O'quvchilar ishlasin va harakat qilsin! Buni amalga oshirish uchun keyingi mavzu bo'yicha ba'zi ma'lumotlarni topish vazifasini berdim. Yoki dars davomida o'quvchilarning hayotiy tajribasiga murojaat qildim.

O'sib kelayotgan avlod erkin, ijodiy fikrlovchi, rivojlangan har qanday ish qo'lidan keladigan komil shaxs bo'lmog'i zarur. Samarali boshlash muvaffaqiyat kalitidir.

Darslarimni har doim g'ayrioddiy va qiziqarli tarzda boshlayman. Aynan shu daqiqada siz nostandart usullardan "Loyiha metodi" dan foydalanishingiz mumkin. Masalan, uy vazifasini zerikarli so'rov o'rniga musobaqa tashkil qildim.

Agar mavzu yangi bo'lsa, unda siz darsni ushbu mavzu bo'yicha qiziqarli faktlar bilan boshlashingiz mumkin. "Loyiha metodini "qo'shing. Har doim va har qanday sinfda ham loyiha - ajoyib variant. Chunki loyiha metodi darslar har qanday yoshdagi maktab o'quvchilarini ham birdek jalb qila oladi.

Shu sababli darsimga to'g'ri keluvchi loyiha metodini joriy qilishga qaror qildim!

Jamoalarni shakllantirildi .

– qur'a tashlash orqali shakllantirildi.

O'quvchilar tomonidan shakllantirish (ayrim o'quvchilarning jamoalarga qo'shilmay qolish holatiga yo'l qo'ymaslik kerak). Bu vaziyatni e'tiborsiz qoldirmadim. O'quvchilarni 4 ta jamoaga bo'ib ularga nom berildi . Jamoaga bo'lish jarayonini kreativ o'tkazdim. Ranglardan foydalangan holda guruhlariga bo'lindi. Darsni o'quvchilarning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda rejalashtirildi. Har bir darsni rejalashtirish uchun turli xil variantlardan foydalanildi! Nafaqat sinfda faollarni, balki darsda tez-tez "esnaydigan", ortda qolayotgan o'quvchilarni ham jalb qilindi.

Izoh:

- mavzu asosida har bir ma'rifatparvar faoliyati bo'yicha ma'lumotlarni to'plang;
- o'sha davrdagi muammolarini aniqlang;
- o'sha davrdagi muammoga yechim izlang;
- taqdimot tayyorlang;
- tahrirlang;
- taqdim eting.

Bosqichlar	Mazmuni	Metodik shakli



Date: 5th June-2025

1 – bosqich	O'qituvchi, o'quvchilarga tarixda qanday muommolar borligini, o'zlari qiziqqan muommolarga yechim qidrishlari kerakligini etadi.	Aqliy hujim, Mustaqil
	O'qituvchi, o'quvchilarga loyiha ishi qanday qilinishini bayon qiladi.	
2- bosqich	O'qituvchi, o'quvchilarni guruhlariga bo'ladi.	Bayon qilish
	Har bir kichik guruhlariga bo'lingan O'quvchilarga o'zlarini qiziqtirgan Muammoni tanlash va ushbu muommoga yechim topish uchun loyha tayyorlash beriladi	
3- bosqich	Loyha taqdimoti	Ixtiyoriy
Asosiy qism	O'quvchilar loyiha ishi tayyorlashni boshlashadi.	
Yakuniy bosqich	O'qituvchi, o'quvchilardan loyiha ishini qabul qilib oladi. Xato, kamchiliklarni aytadi. Darsni umumlashtiradi va yakunlaydi.	Mustaqil

GLOSSARIY

Loyihalash metodi- pedagogikaning pragmatik yo'nalishiga asoslangan holda, ta'lim jarayonida o'quvchilarga beriladigan amaliy topshiriqlarni loyihalash va ularni

Date: 5th June-2025

o'quvchilarning bajarishlari jarayonida bilim va ko'nikmalarini namoyon qilishlarini ta'minlovchi ta'lim shakli.

Loyihalash –oldindagi faoliyat modelini tuzish, mavjud sharoitlarda o'rnatilgan vaqt mobaynida yol va vositalarni tanlash uchun, maqsadga erishish bosqichlarini ajratish, ular uchun alohida vazifalarni shakllantirish, o'quv axboroti va qaytar aloqani yetkazish vositasi va yo'llarini aniqlash.

Metod – tabiiy va ijtimoiy hayot hodisalarini tadqiq qilish, bilish metodi; harakat qilish metodi, tarzi.

Metodika– biror ishni tashkil qilishda maqsadga muvofiq qo'llanadigan metodlar.

Glossariy - muayyan mavzuga oid atamalarni qamrab olgan kichik xajmli lug'at.

Innovatsiya – sohaga yangilik, o'zgarishlar olib kirish jarayoni va faoliyati. Kommunikativ qobiliyat -Boshqalarning ruhiy holatlarini tushunish va ularga hamdardlik munosabatida bo'lish asosida ta'lim va tarbiya bera olish qobiliyatidir.

Kommunikativ qobiliyat -Muloqot o'rnatish, ta'sir qilish, ishontirish, dalillash, notiqlik layoqati.

Kommunikatsiya – bu kishilar o'rtasidagi o'zaro axborot almashuvi

Nutq qobiliyati – shaxsning o'z his-tuyg'ularini nutq, shuningdek, mimika, pantomimika yordamida aniq va ravshan ifodalab berish qobiliyati

Nutqning vazifalari- Nutq vositasida bolaning his-tuyg'ulari, o'quvchilar orasida muloqot olib borish, olingan ma'lumotlarni ongli tahliliy idrok etish

Ta'lim – o'qitishning mahsuli bo'lib, o'qitish jarayonida o'quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma, malakalar va tafakkur metodlarining tizimi.

XULOSA

Loyihalash asosida o'qitish ta'lim-tarbiyaning ma'lum bir vazifalarini hal qiladi: loyiha asosida o'qitiladigan har bir ishtirokchida shaxsiy ishonchning o'sishiga yordam berish, uni o'z-o'zini ro'yobga chiqarishi va refleksiyasiga yordam berish. Ko'rsatilganlar "yutuq vaziyati"ni darsda (yoki darsdan tashqari) so'z bilan emas, amalda his qilish orqali o'quvchi o'zining kerakligi, omadli ekanligini va turli muammoli vaziyatlarni bartaraf qila olish qobiliyatiga ega ekanligini bilishiga olib keladi

O'quvchi loyiha metodi asosida o'qish jarayonida o'zini va o'zidagi imkoniyatlarini his qiladi. Jamoada birgalikda ishlash davomida o'z hissasini anglaydi, hamda loyiha topshirig'ini bajarish jarayonida yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi, loyihani bajarish vaqtida o'quvchilarda natijaga erishish uchun jamoa bo'lib ishlashning ahamiyatini anglash rivojlanadi

Bundan tashqari bugungi axborotlar zamonida o'quvchilarni xotirasida berilgan ma'lumotlarni saqlab, ushbu o'rganilgan materiallarni kelajakda kundalik hayotda qo'llay olish kompetensiyasini shakllantirish muammosining yechimini topish, o'quvchilarda milliy qadriyatlarimizga bo'lgan hurmatni oshirish, tariximizda o'tgan ajdodlarimizdan faxrlanish hissini uyg'otishdan iboratdir. Afsuski bugungi kunda yoshlarni ommaviy madaniyat ko'proq qiziqtirmoqda.

Date: 5th June-2025

Ommaviy madaniy orqali kirib kelayotgan salbiy illatlardan o'quvchilarni qaytarish, ularda o'z tariximizga, milliy qadriyatlarimizga qiziqish uyg'otish uchun esa darslarni zamonaviy tarzda tashkil etib, har bir mavzuni o'quvchi ongiga singdirishda interfaol metodlardan foydalanish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Mavlonova.R., Voxidova., N .Raxmonqulova.N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Fan va texnika, 2010.
2. Педагогика: Учебник / Л.П. Крившенко, М.Е. Вайндорф-Сысоева и др.; Под ред. Л.П. Крившенко. М.: 2004.
3. Tolipov, O', Ro'ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat -T.: Innovatsiya-ziyo, 2019.
- Shadmanova S. Tarix tadqiqotlarining metodologiyasi va zamonaviy usullari. – T.: Barkamol fayz media, 2018.
5. Alimova D.A., Ilxamov Z.A. Tarix fani metodologiyasi. –T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018.
6. Umumiy pedagogika. I-qism -T.: O'zkitobsavdo, 2019.
7. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti -T.: Sano-standart, 2017.
8. Umumiy pedagogika. Qism I: darslik / O.Musurmonova [va boshq.]. – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2020.
9. Umumiy pedagogika.: K- 1-2: o'quv qo'llanma / A. Musurmanova [va boshq.]. -T.: O'zkitobsavdo, 2020.
10. Abdullayeva Sh.A. Nusratova H.Ch. Abdullayev F.A. To'rayev A.B. Umumiy pedagogika. -T.: Zuxra baraka biznes, 2021.
11. Tolipov, O', Ro'ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat - T.: Innovatsiya-ziyo, 2019.
12. Nishanova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi (O'quv qo'llanma). -T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jarng'armasi, 2006.
13. Maxmudov S.Yu. Umaraliyeva M.A. Karimova G.K. Ilmiy-pedagogik va o'quv- metodik nashrlardagi informatsiyaviy tahdidlar monitoringi: tahlil, rejalashtirish va amalga oshirish. – T.: 2015.
14. Xodjayev B., Choriyev A., Saliyeva Z. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasdi. – T.: Iqtisodiyot dunyosi, 2018.
15. Yo'ldoshev J. Yo'ldasheva F. Yo'ldosheva G. Interfaol ta'lim – sifat kafolati. – T.: 2008.
16. Toshpo'latov T.G'afforov Y. Tarix o'qitish metodikasi. –T.: Turon-iqbol. 2010.

